



**TARBIYACHILARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

Samarqand davlat universiteti

filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti kabinet mudiri

Murotqobilova Mahliyo

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik muammolar global muammoga aylanayotgan bir davrda yashayotganimizni hamda bu muammolarga hammamiz birgalikda harakatlarni amalga oshirishimiz lozimligi ko'rsatilgan. Ekologik ta'limni maktabgacha yoshdagi bolalardan boshlash lozimligi va avvalo uning uchun tarbiyachilarni ekologik bilimini oshirish lozimligi qayt etilgan. Tarbiyachilarni ekologik savodxonligini oshirish maqsadida bir qancha innovatsion texnologiyalarni maqolada ko'rsatib o'tganmiz. Bu texnologiyalarni qo'llash orqali nafaqat tarbiyachilarning balki atrofidagi insonlar va bolalarning ham ekologiya nima ekanligi to'g'risida ongida tasavvur uyg'onishiga kumak bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Ekologik kompetentlik, innovatsion texnologiya, fasilatsion texnologiya, refleksiv metod, metomodel metod, dekort chizmasi.*

Абстрактный: *В статье показано, что мы живём в эпоху, когда экологические проблемы становятся глобальной проблемой, и что всем нам необходимо действовать сообща для их решения. Подчеркивается, что экологическое образование должно начинаться с дошкольников и, прежде всего, необходимо повышать уровень экологических знаний педагогов. Для повышения экологической грамотности педагогов в статье представлен ряд инновационных технологий. Использование этих технологий поможет пробудить воображение не только педагогов, но и окружающих их людей, а также детей, в отношении того, что такое экология.*



Ключевые слова: Экологическая компетентность, инновационные технологии, фасилитационные технологии, рефлексивный метод, метод метамоделирования, сценография.

Abstract: This article shows that we live in a time when environmental problems are becoming a global problem and that we all need to take joint action to address these problems. It is emphasized that environmental education should start with preschool children and, first of all, it is necessary to increase the environmental knowledge of educators. In order to increase the environmental literacy of educators, we have presented a number of innovative technologies in the article. The use of these technologies will help to awaken the imagination of not only educators, but also the people around them and children about what ecology is.

Keywords: Ecological competence, innovative technology, facilitation technology, reflexive method, metamodel method, decor drawing.

XX asrga kelib ekologik muammolar xavfli global muammolarga aylanmoqda. Ekologik muammolar, ekologik inqirozlar sababini topish va yechim izlashda turli davlatlarning tadqiqotchilari balki jamiyat, davlat organlari ishtirok etmoqda. Ekologik xavfni oldini olish uchun texnikaviy, huquqiy sohalarni va demografik holatlarni rivojlantiribgina emas, balki ta'lim tizimiga ekologik ta'limni kiritish va amalga oshirishga e'tibor qaratish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligini isbotlab berdilar. Ekologik ta'lim tarbiya tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariga qarab amalga oshirilsa ijobiy natijalarga erishiladi. Ekolog N. F. Reymers □Ommobop biologik lug'at□ (1991) asarida □ekologik ong bu insonlarning tabiat bilan o'zaro bog'liq ekanligini, yashash muhiti tabiat bilan aloqadorligini, chuqur singdirishdan iborat deb ta'rif beradi. Ekologik tafakkur va ong tabiatda yuz berayotgan salbiy oqibatlarni oldini olishning samarali usuli. Tarbiyachining ekologik ong va tafakkuri faqat o'zi emas balki, yosh avlodni ekologik ong va tafakkurini shakllanishiga sabab bo'ladi.

Tarbiyachilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning insonparvarlik tomonlari ekologik ma'daniyatli insonni tarbiyalashda, insonning o'zi, uning harakatlari, xulq - atvori, uning faoliyati eng asosiy o'rinni egallaydi.



Tarbiyachilar ekologik kompetentligini rivojlantirishning metodik tizmini tashkil qiluvchi omillar quyidagilar.

- Mashg'ulotlarni guruhli tarzda tashkil qilish va olib borish, guruhda kommunikativ aloqalar umumiy ijtimoiy □ tabiiy aloqalarni vujudga keltiradi,
- Ekologik ko'nikmalarga ega bo'lish, ekologik muammolarni aniqlash va ekologik tadqiqot ishlarini amalga oshirish, ekologik faoliyatni yo'lga quyish vazifasini o'tashi kerak,
- Ekologik barqarorlikka erishish yo'lida jamiyat, ekologik tuzilmalar, tabiatni muhofaza qilish organlari bir - biri bilan uzviyligining mavjudligi.

Tarbiyachilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirish uchun, ilmiy tadqiqot jarayonida quyidagi texnologiyalarni ko'rib chiqamiz.

1. Vitagen texnologiyalar;
2. Refleksiv texnologiyalar;
3. Fasilatsion texnologiyalar;
4. Axborot va kommunikatsion texnologiyalar.

Vitagen texnologiyalar A.S.Belkin dastlab 1990-yillarning oxirida pedagogikaga vitagenlik ta'lim g'oyasini kiritgan. Vitagenlik ta'lim o'quv jarayonida hayoti tajribadan foydalanishni o'z ichiga oladi, buning asosida bolalarga hayotiy vaziyatlarni hal qilish o'rgatish yotadi. Vitagen texnologiya ma'lum bir mavzu yuzasidan taqdim etilgan vazifalar asosida tarbiyachilarni ilmiy fikrlashga, guruh bo'lib birgalikda ishlashga va boshqalar bildirgan fikrlarni tahlil qilaolishlikka o'rgatadi. Vitagen texnologiyalar munozarali ma'ruza, keys stadilarni, bumerang metodlari va aqliy hujum metodlarini o'z ichiga oladi. Bu metodlar orqali tarbiyachilarning egallagan nazariy va amaliy bilimlarini hayotiy faoliyatlarda, kutilgan va kutilmagan hodisalarda virtual tarzda qo'llab ko'rish imkonini beradi. Vitagen texnologiyasiga asoslangan tarbiyachilar ekologik kompetentligini rivojlantirishda keys mashg'ulotlari juda yaxsh natija beradi. Keys metodi. Ingiliz tilida "case study" □ so'zlaridan olingan bo'lib, □ "case" □ yashik, quti, g'ilof, jild, "study" o'rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'ullanish, shuningdek, bu metod



to'g'risida inglizcha aytiladigan "case true life, ya'ni □keys haqiqiy hayot□ iborasiga ko'ra keys □ real hayotning bir bo'lagidir.[1.60-b]

Keys stadi metodi orqali o'rganilayotgan har bir muammo yoki ma'lum bir mavzu yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar rejasi va ularni bajarish tavsiloti, ularning natija va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga yo'naltirilgan. Bu esa, hozirgi kunda ta'lim sohasida mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish imkonini beradi. G'arb mamlakatlarining ta'lim muassasalarida keyslardan foydalanish, o'quv re'janing 25 % ini tashkil qilar ekon. Bu metod insonning fikrlash qobiliyati rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Fasilatsion texnologiyalar □ Fasilaysiya (inglizcha □facilitate□ □ yordam berish, yo'l yo'riq ko'rsatish) □ bu ishni professional tashkil etish, guruhda muloqat qilish. Fasilitatsiya □ bu guruhda muloqatni tashkil qilish usuli. Fasilitator nima qiladi?

- Uchrashuv maqsadini shakllantiradi va uni eslaydi;
- Hech kim zerikmasligi yoki chalg'imasligi uchun muhokama tezligini saqlab qoladi;
- Barcha fikrlar, qarorlar va takliflarni qayd etadi;
- O'zaro munosabatni qoidalarini ishlab chiqadi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi.
- Netral bo'lib qoladi: o'z fikrini yuklamaydi, hech bir tomonni qo'llab □ quvvatlamaydi, lekin hammaning fikrini eshitishga ishonch hosil qiladi.[2 .15-b]

Fasilatsiya tarbiyachilarni ta'lim tarbiya jarayonida, kichik guruhlarda o'quv topshiriqlarni bajarishga yo'naltirish orqali tarbiyachilarda fasilitator ya'ni liderni shakllantirishga olib keladi. Ekologik muammolarni ijobiy tomonga hal qilishda, tajribaga ega bo'lgan fasilitatorlarni tayyorlash kata ahamiyat kasb etadi. Fasilatsion texnologiyaning eng asosiy xususiyati, muammoni guruh bilan birgalikda hal qilish.

Fasilitsoin texnologiyalar dars jarayonida qo'llash uchun uch asosdan foydalandik:

1. Aniq (unga o'xshash, aniq mos tushadigan) ma'lumotlar;



2. Tanlovning erkin va raqobatbardoshligi;
3. Tanlov uchun insonning ichki ma'ulyati bilan yondashishi.

Bu uch asos tarbiyachilarni audotoriya mashg'ulotlarini olib borish jarayonida qo'llashi natijasida, mutaxassislar ichida yetakchi ledirlarni shaklanib chiqishini ko'rsatdi. Ekologik treninglar fasilatsion texnologiyaning asosini tashkil qilgan holda, tarbiyachilar bunday ekotreninglardan samarali foydalanishi natijasida, tarbiyachilada ilmiy ekologik qarashlar shakllanadi, hayotda sodir bo'ladigan kutilgan va kutilmagan hodisalarda to'g'ri yechim topoladigan fasilatorlar bo'lish darajasi yuqori ekonligini namoyon qiladi.[3.3-b] Hozirgi davrga kelib davr talabiga ko'ra insonlar muhit talablariga mos kommunikativ, texnologiya bilan ishlay oladigan, tabiiy muhit va unda ruy berayotgan o'zgarishlar, shuningdek kelajak haqida o'zining qarashlarini mustaqil bildiradi oladigan, mustaqil mantiqiy fikrlar oladigan, egallagan bilim, ko'nikma, malaka, hamda kompetensiyalarni tahlil qilaolish, shuningdek inson umri davomida ilm izlash o'z ustida ishlashi va rivojlanishini talab qilmoqda. Mental xaritalar orqali ekologik ta'limda ijobiy natijalarga erishiladi. Mental xarita □ mental xarita aql □ idrok xaritasi, assotsiativ xarita va xotira xaritalari nomi bilan ham nomlanib keladi. Mental xarita tarbiyachilarda erkin fikrlash, qabul qilgan ma'lumotlarni eslab qolish, ijodiy vazifalarni hal qilishning qog'ozda ask etgan qulay va samarali usuli.[4.5-b] Tarbiyachilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda mental xaritalardan foydalanishdan maqsad, tarbiyachilarni mantiqan to'g'ri tasavvur qilish, o'quv materialidagi vazifalarni anglash, ularni amalda qo'llash, tahlil, sintez qilish va xulosalar chiqarishga o'z hissasini qo'shadi. Hozirgi kunda mental xarita dolzarb va fikrlashning vizuallashtirish usuli bo'lib, mental xaritani Britaniyalik psixolog Toni Byuzin yaratgan.[5. 31-b].

Mental xaritada tarbiyachilar fikrlarini yozish maqsadida, matnlardan, chiziqli shakllardan, sxema va jadvallarda foydalanadilar. Mental xaritadan ta'lim faoliyatida har xil usulda va samarali foydalanish mumkin:

- Muammoli hodisalarni hal qilishda;
- Tayanch konspektlar yozishda;



- Jamoa tarzda muammoni yechimini topish (aqliy hujum);
- o'rgangan ma'lum bir mavzuni umumlashtirishda va tizimlashtirishda foydalanish.

Mental xarita bilan ishlash samarali natijalarga olib keladi va ta'lim jarayonida mental xaritadan foydalanish imkoniyatlari quyidagilar:

- mental xarita bilan ishlash jarayonida: ekologik bilish, tushunish, uni amalda qo'llash, tahlil, sintez qilish va xulosalar chiqarish kabi baholash mezonlarini qo'llash imkoniyati yaratiladi;

- B. Blum taksonomiyasi to'liq darajada, mental xarita bilan ishlashda o'z aksini topadi;

- Ma'ruza mashg'ulotlarda mental xaritadan foydalanish qulay va samarali.

Refleksiv texnologiya. Refleksiv ta'lim va tarbiya texnologiyasi muloqat asosida tashkil etiladi va diologik munosabatning turli shakllarini taklif qiladi:

- tarbiyachining o'z ichki □Meni bilan diologi. Bunda tarbiyachi o'z ichki dunyosiga quyidagi savollar bilan nazar soladi: Bu mashg'ulotda men nimalarni his qildim?, Mashg'ulotdan maqsadim nima edi?, Nima qildim?, Nimaga erishdim?, Nimalarni qila olmadim?, Maqsadga yetishish uchun nima qilishim zarur?.

- tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan ichki □Meni bilan diologi. Bunda tarbiyachi ularga quyidagi savollar bilan yuzlanadi: O'zingizni mashg'ulotda qanday his qildingiz?, qaysi ma'lumotni tushundingiz?, qaysi ma'lumotni tushunmadingiz, Mashg'ulotni qaysi jihatlari foydali bo'ldi?.

- tarbiyalanuvchilarning o'z ichki □Meni bilan diologi. Bunda tarbiyachi ularga quyidagi savollar beradi: Men mashg'ulotda nimalarni oldim?, Mashg'ulotda nima qildim?, Mashg'ulot orqali nimalarni o'zlashtirdim? Nimani tushunmadim?, nima men uchun yangilik bo'ldi?.

Refleksif ta'limni amalga oshirishda mashg'ulot sifatining monitoringi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tarbiyachi metod va usullar orqali o'z faoliyati natijalarini baholaydi.



Metamodel metodi [6. 11-b] – Dekort kvadrati chizmasi. Bu metod Dekort koordinatalari orqali amalga oshiriladi. Bu metodda oq qog‘ozga X va Y o‘qlar kesishmasi chiziladi. Hosil bo‘lgan chizmaning to‘rt bo‘lagida formula asosida fikrlar yoziladi:

1. $A+B$ “ agar men X ni qilsam nima bo‘ladi? ☐ yoki ☐ agar men X ni qilsam nimaga erishaman? ☐
2. $A+(-B)$ ☐ agar men X ni qilmasam nima bo‘ladi? ☐ yoki ☐ men X ni qilmasam nimaga erishaman? ☐
3. $(-A)+(-B)$ ☐ agar men X ni qilmasam nima bo‘lmaydi? ☐ yoki ☐ agar men X ni bajarmasam nimani yuqotaman? ☐
4. $(-A)+B$ ☐ agar men X ni bajarmasam nima sodir bo‘lmaydi? ☐ yoki ☐ agar men X ni bajarsam nima hosil bo‘ladi? ☐

Metamodel metodi [6.11-b] – Dekort kvadrati chizmasi. Bu metod Dekort koordinatalari orqali amalga oshiriladi. Bu metodda oq qog‘ozga X va Y o‘qlar kesishmasi chiziladi. Hosil bo‘lgan chizmaning to‘rt bo‘lagida formula asosida fikrlar yoziladi:

1. $A+B$ “ agar men X ni qilsam nima bo‘ladi? ☐ yoki ☐ agar men X ni qilsam nimaga erishaman? ☐
2. $A+(-B)$ ☐ agar men X ni qilmasam nima bo‘ladi? ☐ yoki ☐ men X ni qilmasam nimaga erishaman? ☐
3. $(-A)+(-B)$ ☐ agar men X ni qilmasam nima bo‘lmaydi? ☐ yoki ☐ agar men X ni bajarmasam nimani yuqotaman? ☐
4. $(-A)+B$ ☐ agar men X ni bajarmasam nima sodir bo‘lmaydi? ☐ yoki ☐ agar men X ni bajarsam nima hosil bo‘ladi? ☐

Dekort chizmasi orqali inson ichki ruhiyatini, istaklarini yoki ma’lum bir maqsadni, vazifani bajarishni xohlaymizmi yoki yo‘qligini aqlash uchun juda foydali metod hisoblanadi. Buning oqibatida biz avvaldan bajarish xohishi bo‘lgan vazifalar yuzaga chiqadi yoki bu vazifalar muhim emasligini tushungan holda, u to‘g‘risidagi fikrimizni yakunlaymiz. Bu chizma orqali tarbiyachining ichki tuyg‘usida yuz berayotgan savollarga, javoblar topadi. Tarbiyachi mana shu metod



orqali o'z o'ziga savol berish orqali o'z o'zini tarbiyalaydi desam mubolag'a bo'lmaydi. Inson ruyiyati orqali tarbiyalash albatta ijobiy natijalarga olib keladi. Bu metodni bolalarda ham qo'llasa bo'ladi, bu orqali bolalarda tabiatga bo'lgan mehrini oshirish, unga nisbatan munosabatni ijobiy tamonga o'zgartirish, ekologik bilim, ekologik ongi shakllanishiga olib keladi. Bu chizmadan "Tarbiyachilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish kerakmi?" savol muhokamasida foydalansak bo'ladi. Masalan: biz dekort kvadrati uchun □ Men ekologiya va uni muhofazalash bilimlarni egallashim kerak□ deb nomlasak bunda tarbiyachi ekologik bilimlarni o'zlashtirishi lozim ekanligi, o'zlashtirmasa qanday oqibatlarga olib kelishi to'g'risida o'ziga xulosa chiqaradi.

O'zining reflektiv □ psixologik mexanizmi yordamida bu texnologiyada tarbiyachininig ekologik tafakkuri va ekologik amaliy faoliyatini qayta tashkil qilishga undaydi. Ta'lim jarayoniga reflektiv texnologiyalarni qo'llash orqali tarbiyachi ichki motivatsiyasini shakllantirishi, rivojlantirishi, shuningdek o'z shaxsiy salohiyati orqali tarbiyachining ijodkorligini yuksaltirib, o'z faoliyatini yangi bosqichlarga olib chiqishi mumkin.

Axborot va kommunikativ texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy qilish, hozirgi kunning muhim shartidir. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash, dars jarayoniga ta'lim oluvchilarni qiziqtirish, dars jarayonini samarali tashkil qilish, ta'lim berish jarayonining yengillashishi kabi ijobiy natijalarga erishiladi. Ta'lim berishda qo'llaniladigan axborot texnologiyalar quyidagicha nomoyon bo'ladi. kompyuter, kompakt - disklar, raqamli ta'lim resurslari, veb saytlar, interaktiv modellar, elektron pochta kabilar qo'llaniladi. Innovatsion texnologiyalardan lokal va xususiy texnologiyalar ta'lim va tarbiya jarayonida tarbiyachilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda ijobiy ahamiyatga ega. Rang, tasvir, ovoz multimediya vositalari hisoblanib, tarbiyachilarda o'quv axborotini qabul qilishni rivojlantiradi va reflektiv ko'nikmalarni shakllantiradi. Raqamli ta'limiy dasturlar tarbiyachilar o'quv faoliyatini sifatli va aniq tarzda nazorat qilish imkonini beradi. Axborot va kommunikatsion texnologiyalarni doimiy holda tadbiq qilish,



tarbiyachilarni kasb tomonlarni o‘stirish bilan bir qatorda tarbiyachilarda ijodkorlik qobiliyatini shakantiradi.

Bo‘lajak tarbiyachilar va tarbiyachilarning ekologik kompetentligi rivojlantirish va ekologik faoliyatga undashda innovatsion texnologiyalarni bosqichma - bosqich ta’lim jarayoniga tadbiq etish yordamida sindirish mumkin. Atrof - muhit to‘g‘risidagi bilimlarni qabul qilishda bu texnologiyalar yordam beradi. Tarbiyachi ekologik vazifalarni ijodiy hal qilish , qabul qilingan ekologik amaliy va nazariy bilimlar mustahkamlanadi va hayotiy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini beradi. Yuqorida qilinayotgan barcha ishlar tarbiyachining ekologik bilimini oshirish ya’ni ular bolalarga ekologik sifatli ta’lim berishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Равен.Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление развитие и реализация- М 2002 (англ. 1984) 11-б
2. Зеер.Э.Ф Компетентностный подход к образованию. Уральское отделение Российской Академии Образования 2004.22-б
3. Хуторскойю А. В. Образовательные компетенции и методология дидактики 2004. 5- б
4. Кондурар. М. В. Понятия компетенция и компетентность в образовании Вектор науки ТГУ. №1(8).2012. УДК 378.01. 15б
5. Макеедова А. А “Формирование экологической компетентности старшеклассников в природоохранной деятельности гимназии” Дисс...сахар.пед.наук 13.00.01.М. 2007.238б.
- 6 Д. С. Эрмаков “ Экологическая компетенция учащихся содержаниеб структура, особенности формирования”2002 18-б
7. А.А.Нестерова “Особенности формирования экологической компетентности у будущего педагога дошкольного образования”
8. О. Hasanboyeva, X.Jabborova, Z. Nodirova “Tabiat bilan tanishtirish metodikasi” (to‘ldirilgan nashr) Toshkent- 2016 20-27 betlar
9. Лабикова.М.Н. Соотношение понятий «Компетенция» и «Компетентность» в контексте современного образования .15б



10. O. Hasanboyeva, X.Jabborova, Z. Nodirova “Tabiat bilan tanishtirish metodikasi” (to‘ldirilgan nashr) Toshkent- 2016 30b.
11. Нарзикулова Дилноза Хашимжановна. —Таълимни ахборотлаштириш шароитида педагогик низоларнинг профилактик технологияларини такомиллаштириш, Пед.фан.бўйича (PhD)...дисс. автореф. — Самарқанд- 2018.: -16-b.
12. О.У. Аблаевб С.Н. Жураева, С.Р. Мирзаева "Ta'lim metodlari" Toshkent – 2017 7-10betlar
13. Белкин.А.С,Вербицкая.Н.О.Витагенное образование в системе педагогического знания (витагенное концепция личности), —народное образование. 37-b
14. Сабитова Ж.К. проектирование результатов обучения: экологическая компетентность, Томский политехнический университет Томск, Россия ;2006 12b

Internet saytlari

1. <http://geografiya.uz/ekologiya/835-unep-bmtning-ekologik-ovozi.html>
2. <https://themeformen.ru/uz/therapy-for-dermatitis/mezhdunarodnye-oohrane-prirody-spisok-mezhdunarodnye-ekologicheskie-organizacii-chto-mozhno/>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/10/21/ecology/>
4. https://constitution.uz/oz/pages/Ekologik_munosabatlar
5. <http://geografiya.uz/bilasizmi/10726-ozbekiston-respublikasining-yirik-xalqaro-tashkilotlarida-azoligi.html> .